

“Yetkazib berishni boshqarish” fani bo‘yicha yakuniy nazorat savollari

“Bilish” darajasiga mansub savollar

1. Ta’minot zanjiri deganda nima tushuniladi?
2. Ta’minot zanjirining asosiy bo‘g‘inlarini sanang.
3. Ta’minot zanjiri boshqaruvining asosiy maqsadini ayting.
4. Zaxira tushunchasini ta’riflang.
5. Zaxiralarning turlarini sanang.
6. Logistika tarmog‘ini loyihalashda hisobga olinadigan omillarni sanang.
7. Bullwhip effekti deganda nima tushuniladi?
8. Axborotning qiymati tushunchasiga ta’rif bering.
9. Talabni prognoz qilish deganda nima tushuniladi?
10. Agregat rejalashtirishning asosiy maqsadi nima?
11. ERP tizimi nima? Ta’rif bering.
12. WMS tizimi nima? Ta’rif bering.
13. TMS tizimi nima? Ta’rif bering.
14. Track&Trace tizimi nima?
15. Moslashuvchan ta’minot tarmog‘i deganda nima tushuniladi?
16. IoT texnologiyasi tushunchasi.
17. Strategik ittifoq tushunchasini ta’riflang.
18. Raqamli transformatsiya nima? Ta’rif bering.
19. Talabga asoslangan narxlash modeli nima?
20. Ta’minot shartnomasi deganda nima tushuniladi?

“Tushunish” darajasiga mansub savollar

21. Ta’minot zanjirida har bir bo‘g‘inning roli nimadan iboratligini tushuntiring.
22. Non mahsulotida ta’minot zanjiri qanday ishlashini izohlang.
23. “To‘g‘ri mahsulot, to‘g‘ri joy, to‘g‘ri vaqt...” iborasining ma’nosini izohlang.
24. Ta’minot zanjiri boshqaruvida axborot oqimining o‘rni nimadan iborat?
25. Ta’minot zanjiri boshqaruvida moliyaviy oqimning rolini tushuntiring.
26. Raqamlashtirishning ta’minot zanjiriga ijobiy ta’sirini izohlang.
27. Bullwhip effektida axborot yetishmovchiligi qanday rol o‘ynaydi?
28. Buyurtmalarni katta partiyalarda berish nima uchun xavfli ekanini tushuntiring.
29. Zaxiralar ta’minot zanjirida qanday vazifa bajaradi?
30. O‘zbekiston sharoitida ta’minot zanjiri rivojiga ta’sir qiluvchi omillarni izohlang.
31. Strategik va operativ rejalashtirish o‘rtasidagi farqni izohlang.
32. “Ma’lumot oqimi” pochta tizimida nimani anglatadi?
33. Bayram oldi talab oshishi ta’minot zanjiriga qanday ta’sir qiladi?

34. Mahsulotning shakli va hajmi logistika xarajatlariga nima uchun ta'sir qiladi?
35. Jarayon dizayni logistika samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
36. Sinergiya nima va strategik ittifoqlarda qanday namoyon bo'ladi?
37. Talab prognozining noto'g'ri bo'lishi zaxiralarga qanday ta'sir qiladi?
38. Agregat rejalashtirishda talab prognozi nima uchun muhim?
39. AI va Big Data talab prognozida qanday rol o'ynaydi?
40. Axborot texnologiyalarini joriy etishda uchraydigan qiyinchiliklarni izohlang.

“Amalda qo'llash” darajasiga mansub savollar

41. O'zbekiston bo'yicha non yetkazib berish zanjirini bosqichma-bosqich ko'rsating.
42. Bullwhip effektini kamaytirish uchun 3 ta amaliy chora taklif qiling.
43. Elektron tijorat sharoitida buyurtmalar o'zgarishi bullwhipga qanday ta'sir qilishini tushuntiring.
44. O'zbekistonda qaysi tovarlarda bullwhip effekti ko'proq kuchayishini misolda ko'rsating.
45. COVID-19 davrida bullwhip effektining qanday namoyon bo'lganini amaliy misol bilan tushuntiring.
46. ERP tizimini joriy qilish ta'minot zanjiri uzluksizligiga qanday yordam beradi?
47. IoT orqali ombor monitoringini qanday tashkil qilish mumkin?
48. Yangi mahsulot uchun talabni prognoz qilish jarayonini izohlang.
49. Pochta tizimida Navro'zdan oldin yuk oqimini prognozlash bo'yicha amaliy misol bering.
50. KPI sifatida “yetkazib berish vaqti”ni qanday o'lchash mumkin?
51. Mahsulot qadoqlanishining omborga joylashuviga ta'sirini misolda tushuntiring.
52. Marshrutni optimallashtirish algoritmidan qachon va qanday foydalaniladi?
53. RFID orqali ombor hisobini yuritishning amaliy jarayonini ko'rsating.
54. Track&Trace tizimi pochta jo'natmasini kuzatishda qanday qo'llaniladi?
55. Real vaqt monitoringi orqali bullwhipni qanday aniqlash mumkin?
56. O'zbekiston pochta misolida yuk oqimini boshqarish jarayonini izohlang.
57. Agregat rejalashtirishni amalga oshirishda qaysi bo'limlar ishtirok etadi – misolda tushuntiring.
58. Zaxira darajasi noto'g'ri belgilansa qanday real muammo paydo bo'lishini ko'rsating.
59. Tarmoq dizaynida xizmat vaqtini qisqartirish uchun qanday amaliy choralar ko'riladi?
60. O'zbekiston bo'yicha Pepsi/Coca-Cola taqsimot tarmog'idan misol keltirib, markazlashtirilgan yoki tarqoq bo'lishini izohlang.

“Tahlil” darajasiga mansub savollar

61. Bullwhip effektining iqtisodiy oqibatlarini tahlil qiling.
62. Bullwhipni kuchaytiruvchi omillarni sabab–oqibat tarzida tahlil qiling.
63. Zaxiralarning darajasining oshishi va tushishi bilan bog‘liq risklarni tahlil qiling.
64. Talab prognozi noto‘g‘ri bo‘lsa nima uchun ortiqcha zaxira paydo bo‘lishini izohlang.
65. Strategik va operativ rejalashtirishning ustun va kamchiliklarini tahlil qiling.
66. Logistika xarajatlarini oshiruvchi omillarni tahlil qiling.
67. Mahsulot dizaynining logistika xarajatlariga ta‘sirini tahlil qiling.
68. Jarayon dizayni ombor samaradorligiga qanday ta‘sir qilishini tahlil qiling.
69. WMS joriy qilinmaganda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiling.
70. O‘zbekiston sharoitida ta‘minot zanjiri rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni tahlil qiling.
71. “Katta partiya bilan buyurtma berish”ning salbiy oqibatlarini tahlil qiling.
72. Real vaqt monitoringi va bullwhipping kamayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling.
73. Narxlash modellari (xarajat, talab, raqobat)ning farqlarini tahlil qiling.
74. Blockchайдan foydalanishning logistika xavfsizligiga ta‘sirini tahlil qiling.
75. Xalqaro ta‘minot tarmoqlarida siyosiy risklarning rolini tahlil qiling.
76. Sanksiyalar logistika tarmog‘iga qanday ta‘sir qilayotganini tahlil qiling.
77. Xitoyning global ta‘minotdagi rolining ortishi boshqa davlatlarga qanday bosim yaratishini tahlil qiling.
78. Harbiy mojarolar logistik oqimlarni qanday izdan chiqarishini tahlil qiling.
79. Tarmoq dizayni kompaniyaning bozorga kirish strategiyasiga qanday ta‘sir qilishini tahlil qiling.
80. Pochta tizimida IT yetishmovchiligining operatsion samaradorlikka ta‘sirini tahlil qiling.

“Sintez va xulosa” darajasiga mansub savollar

81. Ta‘minot zanjirini optimallashtirish uchun 3 ta yangi raqamli yechim taklif qiling.
82. Bullwhip effektini kamaytirish bo‘yicha konseptual strategiya ishlab chiqing.
83. Pochta tizimi uchun real vaqt monitoringi asosida yangi boshqaruv modeli taklif qiling.
84. Zaxiralarni minimal darajada ushlab turish strategiyasini yarating.
85. O‘zbekiston sharoitida logistika tarmog‘ini raqamlashtirish bo‘yicha 3 yechim taklif qiling.

86. Yangi mahsulot uchun talab prognozlash modelini ishlab chiqing.
87. Omillarni baholab, talab prognozining eng optimal metodini tanlang va asoslang.
88. O‘zbekiston pochta uchun logistika jarayonini optimallashtirish bo‘yicha taklif bering.
89. ERP–WMS–TMS integratsiyasi asosida yagona boshqaruv modeli yarating.
90. Raqamli transformatsiya strategiyasi uchun asosiy bosqichlarni ishlab chiqing.
91. Hamkorlik va strategik ittifoqlar uchun yangi sinergiya modeli taklif qiling.
92. Marshrutlarni optimallashtirish uchun algoritmi tanlang va uni asoslang.
93. Pochta logistikasida xavflarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqing.
94. Ta‘minot zanjirida ekologik barqarorlikni oshirish uchun 3 yechim taklif qiling.
95. Innovatsion qadoqlash dizayni asosida xarajatlarni kamaytirish konsepsiyasini ishlab chiqing.
96. O‘zbekiston tarmoq dizaynini takomillashtirish bo‘yicha strategik yo‘l xaritasini yaratish bo‘yicha taklif bering.
97. Big Data asosida talab prognozining yangi modeli qanday ishlab chiqiladi?
98. Raqobatga asoslangan narxlashni optimallashtirish strategiyasini taklif qiling.
99. O‘zbekiston bozorida strategik ittifoq tuzish uchun eng qulay tarmoqlarni tanlang va asoslang.
100. Pochta logistika tarmog‘i uchun integratsiyalashgan IT–logistika ekotizimi qanday yaratiladi?

Yakuniy nazorat imtihoni biletida 5 ta savol (har bir darajaga mansub bittadan) beriladi. Har bir savolning javobi 10 ballik mezonda baholanadi. Jami 50 ball.

**Raqamli texnologiyalar konvergentsiyasi
kafedrasi dotsenti**

R.Xudoyberdiyev